

HAJVIYALARDA OMONIM SO'ZLARNING KULGI QO'ZG'ASH VOSITASI SIFATIDA ISHLATILISHI

Mavlonova Oyjamol Kozimjon qizi

Andijon davlat universiteti

Lingvistika mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Telefon: +998 91 482 42 21

Annotatsiya: Ushbu maqolada hajviy asarlarda omonim so'zlarning badiiy-estetik imkoniyatlari, ayniqsa, kulgi qo'zg'ashdagi o'rni tahlil qilinadi. Habib Siddiqning hajviy hikoya va felyetonlaridagi omonim so'zlar kulgi effektini kuchaytiruvchi asosiy vosita sifatida o'rganiladi. Tilning ko'p ma'nolilik xususiyati muallif tomonidan satira, kinoya va istehzo yaratishda mohirlik bilan qo'llanilgan. Tahllillar asosida aniqlanishicha, omonimlarning kulgi keltiruvchi vosita sifatidagi samaradorligi ularning kutilmagan semantik o'zgarishi, vaziyatga nisbatan yangi ma'no kasb etishi bilan bog'liq.

Kalit so'zlar: hajviy asar, omonim, kulgi, badiiy vosita, semantik o'yin.

Hajviy asarlarda kulgi hosil qilish vositalarining tahlili ularning mazmun-mohiyatini to'laqonli yoritib berishda va hajviyat haqida tasavvur hosil qilishda ko'mak beradi. Kulgi qo'zg'atuvchi hikoya va hangomalar, hozirjavoblik va zakiylikni ko'rsatuvchi dialogik va polilogik mubohasa, so'z o'yinlari hamda hazil-mutoyibaga tayangan, asrlar davomida turmush tajribalari negizida paydo bo'lgan askiya va payrovlar xalqning haqqoniy turmush-tarzi, og'ir mehnati, ayovsiz kurashlari, o'zaro munosabatlari, etik-estetik hamda falsafiy qarashlarini akslantiruvchi ommaviy janrlardan biri sanaladi. Hajviyalar asosan satira va humor asosiga quriladi va inson tafakkurining hozirjavobligi, zehni o'tkirligi, aql-idrok va donoligini bildiradi. Ular negizida so'z o'yinlari, qochirimlar, chandishlar, kinoyalar, mubolag'alar yotadi. Hajviy asarlar o'qiyotgan o'quvchidan keng fikrashni talab etadi va xuddi fikrash musobaqasi o'tkazilayotgan maydonga chorlaydi.

Hajviyalar yaratishda leksik birliklarning o'rni yuqori va ushbu turdag'i asarlarda kulgi qo'zg'ashda alohida ta'kidlanadi. Ayniqsa, hajviyalarda leksik birliklardan omonim, antonim va polisemantik birliklar ahamiyatlidir.

Omonim atamasi yunoncha "homos" – "birxil" va "onyma" – "nom" so'zidan olingan bo'lib, "bir xil nom (ism, ot)ga ega so'zlar demakdir. Tilshunoslikda omonim birliklar bir xil shakl doirasida turli semalarni bildiruvchi, aytilishi va yozilishi bir xil, ma'no-mazmuni esa har xil bo'lgan til birliklaridir. Hajviyalarda shakldosh birliklar nutqning chiroyli, ta'sirchan ifodalanishi va leksemalardagi nozik ma'no qirralarini farqlashga yordam beradi. Kulgili asarlarda shakldosh so'zlar alohida ahamiyat kasb etadi, ya'ni hajviy asar yaratayotgan yozuvchi bevosa o'zasarlaridagi ma'noni kuchaytirish, insonlar orasida kulgili vaziyatlar yaratish maqsadida o'z asarlarida keng ko'lamma ushbu vositalardan foydalanadi. Masalan, asar qahramonlari nutqida omonimlardan foydalanish

оргали хажвиyани о'qiyotgan o'quvchini chalg'itish, ikkilantirish (omonimlarning qaysi ma'noda ishlatilayotganini bilolmay) maqsadida ushbu so'zlarni nutqiy jarayonga olib kiradi. So'z ustasi, yozuvchi Habib Siddiq ham o'z hajviyalarida, hikoyalarida, qatralarida bu kabi so'zlardan o'rinni foydalanadi. Masalan, "Bedavo dardning davosi" nomli hikoyalar va hajviyalar to'plamidan ayrim kulgili o'rinnlarni misol keltiraman: "Sovutib bering" hajviyasida: Bir korxonaga yuqori tashkilotdan nozir kelibdi, boshliq mehmonni uyiga olib kelibdi. Qittay-qittay olishgach, mezbon maqtanishga tushibdi:

-Davlat tilini joriy qilishga astoydil kirishganmiz. Bolalarni ham ona tilimizga muhabbat ruhida tarbiyalayapmiz.

Bu payt boshliqning kichkina qizchasi eshikdan kirib keldi.

- Papa, papa...

- Hu, ayasi, oling manovini, ovqatini Sovutib bersangiz bo'lmaydimi?

Yuqoridagi hajviyani o'qib bo'lgach beixtiyor kulgiga yo'g'rildi odam, chunki boshliqning maqtanishlari, ona tiliga bo'lgan cheksiz hurmatini bayon etayotganining ustiga kirib qolgan qizalog'I dadasiga "Papa" deb murojaat qiladi va mehmonning oldida dadasini sharmandalik holatiga tushiradi. Axir, u kichkina qizaloq. O'zbeklarda bir gap bor: "Biror mujmal, mavhum narsaning tagiga yetmoqchi bo'lsang, uni, albatta, yosh boladan so'ra, sababi kichkintoylar hech qachon yolg'on so'zlashmaydi". Ushbu holatda boshliqning (qizchaning dadasi) so'zga ustaligi, ayyorligi, har qanday mushkul holatda ham suvdan quruq chiqib ketishi asqatadi, ya'ni ruscha varvar "Papa" so'zini bolajonlar tilida ishlatiladigan issiq (papa) so'ziga almashtirib hozirjavoblik bilan ayoliga murojaat etadi: "Onasi, Sovutib bering qizimizning ovqatini" – deydi. Ushbu holatda chindan ham birgina "Papa" so'zi ikki ma'noda qo'llanmoqda. 1. Issiq so'zining yosh bola tilidan aytilgan varianti. 2. O'zbekcha "Dada" so'zining ruscha "Papa" tarjima.

Papa Varvarizm va dialektizm

→ O'zbekcha "Dada" so'zining ruscha tarjimasi.
→ Issiq so'zining yosh bola tilidan aytilgan tarjimasi.

Yoki yana bir shunday hangomalardan birini misol qiladigan bo'lsam, "Ish deganda" hangomasida ham shakldosh so'zdan foydalanish orgali kulgi hosil qilingan: "Maktabda o'qigan paytlarimizda Obidjon aka degan qattiqko'l muallimimiz bo'lar edi.

-Kecha nega maktabga kelmading?- so'radi u bir kuni bir sinfdoshimizdan.

- Ish chiqib qoldi.

- O'tgan hafta ham shunaqa deganding.

- Undayam ish chiqib qoluvdi-da, domla.

- Qanaqa ish?

Indamaysan-a? Bu sening bahonang, xolos. O'qishdan boshqa ishing yo'q seni. Bundan tashqari, mushtday bo'la turib hadeb "ish, ish" deyavermagin. Agar shunaqa qilaversang, katta bo'lganiningda "ISH" deganda to'xtaydigan bo'lib qolasan. Tepadagi hangomani 2 xil tahlil qilsak, har ikkisida ma'no ko'lami ayricha, sababi bir so'z, ya'ni

“Ish” so’zini turli ma’noda qo’llash orqali yozuvchi ham bolaga tarbiya bermoqda, ham kulgili vaziyat yaratmoqda. “Ish” so’zining 1-ma’nosida tahlil qiladigan bo’lsak, mushtday bo’la turib ish deyavermagin, kelajakda katta bo’lganiningda ish desa, to’xtaydigan bo’lib qolasan, ya’ni ishdan bezib qolasan ma’nosи anglashiladi. Ikkinchи ma’nosida esa yosh boshing bilan ish deyavermagin, kelajakda odamlar “Ish” desa, to’xtaydigan “Eshakka” o’xshab qolasan, degan ma’nolarda keladi va ikkinchi ma’nosи o’quvchida kulgi qo’zg’aydi. Ushbu o’rinda turli so’z turkumiga doir shakldosh so’z orqali kulgi yaratish vositasini oson qo’llaydi, ya’ni “Ish” so’zi bir o’rinda “qilinadigan yumush, mehnat” ma’nolarini anglatib, ot so’z turkumi; yana bir o’rinda esa “hayvonlarni to’xtatish maqsadida (xususan eshakni) ishlatiladigan undov so’zni ifodalab kelmoqda.

Ish ot so’z turkumi va undov so’z

→ Yumush
→ Hayvonlarni to’xtatish uchun ishlatiladigan undovso’z

Ijodkor hangoma va hajviyalarida omonim so’zlarga takror-takror murojaat qiladi. “Inglizcha tush” nomli kitobida bositgan hangomalardan birida “so’ramoq” fe’lini ikki ma’noda: birinchisi – “boshqargan, boshliq bo’lgan”, ikkinchisi esa “savol bergen, so’ragan” ma’nolarida qo’llash orqali kulgi hosil qiladi:

- Bittasi “Mening otam O’shni so’ragan” debdi, - deya hikoya qilgan edi askiyachi domla Xalim Samadov.
- Qo’ysang-chi, otang mahallaga oqsoqol ham bo’lmagan.
- Ishonavering, buni guvohlar ham tasdiqlashadi, - dermish haligi odam. – otam shaharning hov narigi chetiga chiqib, “O’sh qaysi tomonda?” deb so’ragan ekanlar. Bu hajviyada esa omonimlik hodisasi bir turkum doirasida vujudga kelmoqda: “so’ramoq” fe’li bir o’rinda “boshqarmoq”; yana bir o’rinda esa “savol bermoq, o’zga noma’lum bo’lgan biror narsani bilish maqsadida so’ramoq” ma’nosida kelmoqda, ya’ni shakldoshlik faqat fe’l so’z turkumi doirasida bo’lib har ikki ma’nosи harakatni bildirmoqda.

So’ramoq fe’l so’z turkumi doirasida


→ Boshqarmoq
→ Savol bermoq

“Tuxum” sarlavhali mitti hajvida ham omonimlik kulgi yaratishda muhim rol o’ynaganiga guvoh bo’lamiz:

- Dehqon bozoriga in qurib olgan bir guruh chorbozorchilar birdan ko’rinmay qolishdi-ya. Nima balo, tuxum bosib yotishibdimi?
- Yo’g’-e, bosgani tuxum topolmay izg’ib yurishibdi.
- Nega endi?
- Yangi qarordan keyin ularni tuxumi quritilyapti-da!

Mazkur hajvida “tuxum” so’zi leksik omonim bo’lib bir joyda “tovuqdan olinadigan tabiiy mahsulot” semasini yuzaga chiqaradi, yana bir ma’nosи esa eski shakl hisoblanib, “urug’, don, yerga ekiladigan o’simlik urug’i” ma’nosini beradi. Ushbu so’z bir turkum

doirasida shakldoshlik hosil qilmoqda, ya’ni har ikki ma’nosi ham ot so’z turkumiga tegishli.



Xulosa qilib aytganda, Habib Siddiq ijodida omonim so‘zlar hajviy mazmunni ochishda muhim rol o‘ynaydi. Muallif ularni kontekstga mos holda, kutilmagan semantik o‘zgarish orqali, tinglovchi yoki o‘quvchida kulgi uyg‘otish vositasi sifatida mahorat bilan ishlatadi. Omonimlar asosidagi so‘z o‘yinlari hajviy janrga xos quvnoqlik va tanqidiy ruhni yanada kuchaytiradi. Bu esa, hajv san’atining nafaqat kulgiga, balki ijtimoiy fikrga ta’sirchan vosita ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Raupova L. Dialogik nutqning diskursiv talqini. –Toshkent: Fan, 2011.
2. Soliyeva D. Hajviy hikoyalar ustasi. –Andijon, 2023.
3. Kilichev B. Onomastika. – Buxoro, 2023.
4. Habib Siddiq. Bedavo dardning davosi. – Toshkent, 2004.